



Q'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIASI  
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI  
VA FOLKLORI INSTITUTI



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR  
KENGASHI

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani



4-dekabr 2024-yil

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

**№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

## **IZLANISH SAMARALARI**

**№9 Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami**

Toshkent, O‘zbekiston

**2024-yil 4-dekabr**

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

**№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

**IZLANISH SAMARALARI**

**№9 Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**

**MATERIALLARI TO‘PLAMI**

Toshkent, O‘zbekiston

**COLLECTION OF MATERIALS**

from the republic scientific and practical conference

**RESEARCH RESULTS**

Tashkent, Uzbekistan

**СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ**

республиканской научно-практической конференции

**РЕЗУЛЬТАТЫ ИССЛЕДОВАНИЯ**

Ташкент, Узбекистан

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

Izlanish samaralari / – “Yashil yaproq nashriyoti”, Toshkent. – 2024. – 640 b.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Yosh olimlar kengashi hamkorligida 2024-yil 4-dekabr kuni o‘tkazilgan “Izlanish samaralari” 9-ilmiy anjuman materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin. (Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zлari mas’uldirlar)

### **Mas’ul muharrirlar**

Maqsud ASADOV, *f.f.d., prof.*,

Durdona XUDAYBERGANOVA, *f.f.d., prof.*

### **Taqrizchilar**

Abduvahhob MADVALIYEV, *f.f.n., prof.*,

Suvon MELIYEV, *f.f.d., prof.*,

Rahmatullo BARAKAYEV, *f.f.n., prof.*,

Shomirza TURDIMOV, *f.f.d., prof.*,

Ulug‘bek HAMDAM, *f.f.d., prof.*,

Yorqinjon ODILOV, *f.f.d., prof.*,

Berdaq YUSUF, *f.f.n., dots.*

### **Tahrir hay’ati**

Qodirjon ERGASHEV, *f.f.d.*,

Sanobar TO‘LAGANOVA, *f.f.d.*,

Marhabo QO‘CHQOROVA, *f.f.d.*,

Sayfiddin RAFIDDINOV, *f.f.n., dots.*,

Burobiya RAJABOVA, *f.f.n., dots.*,

Gulnoz SATTOROVA, *f.f.n., dots.*

### **Maqolalarni to‘plib, nashrga tayyorlovchi**

Abdumannon HASANOV

Dilmurod ASQAROV

Dadaxon MUHAMMADIYEV

Farhod KENJAYEV

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2024-yil 10-yanvar kuni bo‘lib o‘tgan 2-sonli majlis qarori bilan o‘tkazishga tavsiya qilingan

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

### **ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA KO'HNA OBRAZLAR YANGILANISHI**

**Uldona Abdurahmonova Abdujapbarovna,**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)  
uldonumidjon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eshqobil Shukur she'riyatidagi quyosh, oy, yulduzlar bilan bog'liq o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvur, dunyoqarashlari, astronomik bilim-tajribalari ifodalangan ko'hna mifologik tizimga oid bilimlar, ulardan hosil bo'lgan quyma timsollar shoirning "Aruz", "Changovuz", "Ko'pkari", "Sholi qo'riqchisi", "Chimildiq" kabi she'rlari misolida rang-barang ma'nolarni anglatishi tadqiq qilingan.

**Kalit so'zlar:** oy, quyosh, Go'ro'g'li, obraz, poetik sintez, ruhiy holat, hayrat, sharq-islam ma'rifati.

Xalqimizning quyosh, oy, yulduzlar bilan bog'liq o'lib tiriluvchi tabiat haqidagi tasavvur, dunyoqarashlari, astronomik bilim-tajribalari ifodalangan ko'hna mifologik tizimga oid bilimlar, ulardan hosil bo'lgan quyma timsollar Eshqobil Shukur ijodiy shaxsiyatining ham muhim asosidir. Shoir asarlarida **oy mifik obrazi** ishtirok etgan "Oybodom", "Oybotar", "Oyo 'choq" singari yangi so'zlar, "karsilladi oy", "oy pishdi", "oyday xotirjam", "yo'rgakdagi oy", "uzlatdagi oy", "oydagi to'fon", "oyning beshigi" kabi yangi istioralar, "yarim oy", "tutilgan oy", "uch kunlik oy" singari oyning turli fazalardagi tasvirlari ko'plab uchrashi ham buni dalillaydi. Shoirning o'zi ham suhbatlarining birida "ikki ming yil oldin ham odamlar Oyga qarab o'yga tolgan"i, "Oyda o'z qadrdoni timsolini ko'rgan"ini aytarkan, "oy nafaqat Ona Yerimizning yo'ldoshi, u insonning ham mangu yo'ldoshidir", deydi: "Oyga qarab o'y surib o'tirgan odamning ko'nglida tuyg'ulari uyg'onadi, u boshqacha bo'lib qoladi, muhimi, o'ziga yaqinlashadi. Hatto bo'ri ham oyga qarab uvlaydi. Nega shunday? Bunda bir sir bor. Quyoshga qaraganda bunday bo'lmaydi-ku... Qaysidir zamonlarda Oyni kimdir birinchi bo'lib "Oymomo" deb aytgan. Ana shu odam haqiqiy shoir!. Hamma gap shunda! Qanday yaxshi obraz bu! Shu obraz sabab odamlar Oyni tirik bir timsolda ko'radigan bo'lganlar va asrlar mobaynida unga sirlarini aytib kelganlar"<sup>1</sup>.

Xuddi shunday ko'plab she'rlarda teran ifoda etilgan **quyosh** ("kunbulut", "kunbotar", "quyosh arzandası", "quyosh parchalari", "uxlayotgan kun", "za'faron kunduz", "quyoshga tabassum", "quyosh kulgusi" va hkz), **osmon, falak, samo** ("osmonni tanish", "beshik osmoni", "osmon maktublarin mangu mavzusi",

<sup>1</sup>Eshqobil Shukur, Eng zavqli mashg'ulot – qalbingni tozalash... (Nodir Jonuzoq bilan suhbat). – T.: Yoshlik jurnali, 2016-yil, 10-son

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

**№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

“rahmat yog ‘murlari yog ‘di falakdan”, “qo ‘sh beshikka egiz qamar belangan, beshik bog ‘i osmonlarga ulangan va hkz) bilan bog‘liq turkum poetik obrazlar, betakror chizgilar, ramz istiora va metaforalar mag‘zida bobomeros-momomeros astronomik bilim, qutblar, fasllar almashinuvi, vaqt ichida o‘lib qayta tiriluvchi tabiatga mos inson ko‘nglining o‘zini o‘zi yangilab borishi timsoliy ifoda etilgan. Shoir o‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodida butun bir davrni tashkil qiladigan “Go‘ro‘g‘li” dostonining mazmun-mohiyatini, “uch olam” birlashgan nuqtani uch satrda ifodalaydi:

*“Qabrda tug ‘ilgan Go‘ro‘g‘li edim,  
Ikki jahon aro Yo ‘lo ‘g‘li edim,  
Zulmat yo ‘rgaklagan Nuro ‘g‘li edim...”<sup>2</sup>.*

Bunda qabr – yer osti, ikki jahon oralig‘idagi yo‘l – yer usti, zulmat yo‘rgaklagan nur – samo quvvati ramzi bo‘lib, ko‘ngilning barcha sinovi mazkur uch olamda yuz beradi, uch olamni birbutun idrok etish usuli, an‘anasi sharq-islam muhiti, xususan, bu muhit yetishtirgan turkiy xalqlar estetik potensiali mahsuli hisoblanadi<sup>3</sup>. Eshqobil Shukurning ham ko‘plab she’rlarida ayni shu uch olam bir butun badiiy idroklanarkan, inson obrazi uch olam miqyosiga olib chiqiladi, ko‘ngil fenomeni uch olam ilmidan bahramand maqomga ko‘tariladi:

*“Qaqragan cho‘l edim, chin daryo bo ‘ldim,  
Bo ‘m-bo ‘sh osmon edim, o ‘zimga to ‘ldim,  
Yerga jilg‘alarni yetaklab keldim...”<sup>4</sup>*

“Go‘ro‘g‘li” dostoni, Sh.Turdimov ta’kidlaganidek, o‘zbek xalqining mifo-epik tarjimayi holi, badiiy holatdagi tarixiy xotirasidir<sup>5</sup>. Eshqobil Shukur ham xalqni birlashtiruvchi ezgu quvvat timsoli, uch olam ichidagi alplik missiyasi – go‘ro‘g‘lilikni shoir obrazida gavdalantiradi:

*“Goho botirlarni tug ‘ar qabrlar,  
Goho tug ‘adilar yetim qasosni.  
Yer ostiga kirsa barcha shoirlar,  
Osmondan kutinglar ulug ‘ ovozni.  
Goho botirlarni tug ‘ar qabrlar,  
Marhumlar dunyosin ijodi kabi.  
Yer ustiga chiqar avval shoirlar*

<sup>2</sup>Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.:Akademnashr, 2013. – B. 6.

<sup>3</sup>Jo‘raqulov U. Alisher Navoiy “Xamsa”sida xronotop poetikasi. Filol.. fan... dokt. diss. – T., 2017.

<sup>4</sup>Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013. – B. 6.

<sup>5</sup>Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – T.: Fan, 2011.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

*Dard tutgan qabrlar faryodi kabi*<sup>6</sup>.

1987-yili yozilgan “Potini” she’ri sarlavhasi “Tungi gullar” (1989-yil) to‘plamida shunday izohlanadi: “*Potini qo‘yish – bolalar o‘yini. Potini qo‘yilgandan so‘ng o‘yinga qo‘shilganlarning hammasi bir so‘z ham aytmay, jim qoladilar*”<sup>7</sup>. “Hamal ayvoni” (2002-y.) to‘plamida esa bu izoh sal boyitaladi: “*Potini qo‘yish – bolalar o‘yini. O‘yinga qo‘shilgan bolalarning hammasi bir so‘z ham aytmay, og‘zini yumib o‘tirishlari shart. O‘yining sharti jimlik va gunlik xuddi turg‘unlik zamondagiday...*”<sup>8</sup>. Izohdagи “turg‘unlik zamoni”ni ham ijtimoiy hayot, ham ijtimoiy ong, ham ko‘ngilning turg‘unlik, afsurdahollik, taftish, bilim yig‘ish holati sifatida tushunish o‘rinliroq, nazarimizda. Ruhning zohiran harakatsiz (sust, inert, tinch, sukut), botinan harakatli (o‘zini o‘zi tergayotgan, taftish qilayotgan) holati “*bir chaqmoq yulib o‘ynar tilimning qanotini*”, “*xotiramdan o‘chirdim yuragimning otini*”<sup>9</sup>, “*tilimni tishlab turib chappa quydim otimni*” kabi xalq qo‘shiqlari ohangida ifodalanishi ham buni dalillaydi.

Yoki “Aruz” she’ri<sup>10</sup>da shunday murakkab ruhiy holat ham xalq aytimlari asosida nihoyatda teran ifodalanadi. She’rdagi momo obrazi – xalqimizning mifologik qarashlaridan kelib chiqilsa, “madadkor onaruh”, zamin (ona yer, momo tuproq), oy (oymomo) yoki chaqmoq (Guldur momo) timsolini ifodalaydi. Bu obrazga esa “*temir xalajidan ters o‘tgan momo*”, “*kelim-ketim dunyodan o‘ng yoki keng o‘tgan momo*” tarzida tavsif beriladi. “Temir xalaji” birikmasidagi “xalaj” so‘zining lug‘aviy ma’nosi sal chigalroq. Formal qarasak, bu so‘z “qiz” ma’nosini ifodalayapti. Lekin turkiy qabilalardan birining nomi ham “xalaj” (xalach, qalach) bo‘lgan. Bu so‘z so‘g‘d (“xalcha”) va pashtu (“xalach”) tillarida – tog‘lik, arab, fors (“xallaj”), ozarboyjon tillarida paxta yoki jun tituvchi, xalqona etimologiyaga ko‘ra “och qol” (O‘g‘uzxonning “qoloch”, “och qol” degan hukmiga asoslanadigan dalil), major (vengr) sayyohi H.Vamberi bergen ma’lumotga ko‘ra turkiy “qilich” ma’nolarini bildiradi<sup>11</sup>.

Bu she’rga Surxon momolari yig‘layotgan bolani ovutish uchun aytadigan “qurbaqaning butiga shardoz bog‘lab beraymi?” aytimi asos bo‘lgan (“shardoz” so‘zi shevada qo‘y yoki echki yungidan tayyorlanadigan, ikkiqavatlab pishitilgan ipni

<sup>6</sup>Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995. – B. 69.

<sup>7</sup>Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 30.

<sup>8</sup>Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 95.

<sup>9</sup>“Tungi gullar” (1989-yil) to‘plamida bu satr “O‘qi ko‘zim o‘yig‘idan yuragimning otini” tarzida chop qilinganki, nazarimizda, nashrga tayyorlash jarayonidagi bu “tahrir”ni hatto leksik nuqtayi nazardan ham tushunish qiyin (U.A).

<sup>10</sup>Eshqobil Shukur. Tungi gullar. – T.: Yosh gvardiya, 1989. – B. 4.

<sup>11</sup>Qarang: Hakimov Q., Qayumova M. Etnotonimlarni o‘rganishda etnonimning o‘rnii haqida (xalaj etnonimi misolida), O‘zbekiston geografiya jamiyatixboroti. 55-jild. – T., 2019. – B. 173–177.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bildiradi). Bu aytimning yana bir ma’nosi shuki, mifologik qarashlarga ko‘ra, qurbaqa – suv kultiga tegishli: yomg‘ir, namgarchilik, boylik, uzoq umr timsoliga aylangan. Shu bois xalq tasavvuriga ko‘ra, qurbaqani oyog‘idan osib qo‘yib yomg‘ir chaqirish odati ham bo‘lgan. Surxondaryoning Sopollitepa yodgorligidan qurbaqa haykalchasi topilgani ham buni dalillaydi<sup>12</sup>. Ammo bu she’rda qurbaqa – suvdan tashqari holatda tasvirlanayotgani, boz ustiga unga “ko‘r” (so‘qir) sifati qo‘llanilishi – bu holatning o‘z halovatini topolmayotgan qalb, manzilini izlayotgan yo‘l, Ilohiy bilim halqasida o‘z o‘rnini qidirayotgan ko‘ngil sifatida tushunishga undaydi. Ya’ni ko‘ngil yig‘isining boisi – o‘z botiniga yomg‘ir (halovat) so‘rash, ilikdan murod esa shaklning mazmunini topish. Bu bilimga yetishish istagini quvvati esa “suruv-suruv qayg‘ular”dan “suluv saylab” olishga, “ola tosh” (iztirob)ni yelkasiga tumor qilib taqishga ham qodir:

*“Temir xalajidan  
Ters o‘tgan momo,  
Qurbaqaning butiga shardoz boylab ber endi,  
Yig‘layapman... Yog‘li-yog‘li ilik chaqib berendi,  
Kelim-ketim dunyodan  
O‘ng o‘tgan momo,  
Suruv-suruv qayg‘ulardan suluv saylab ber endi,  
Ola toshdan qoq yelkamga tumor taqib ber endi”.*

Ammo “qurbaqaning sol butiga” shardoz emas, ko‘k tomir (yurakka qon olib keluvchi vena tomiri) bog‘langan, so‘qir qurbaqa esa ko‘ngilni avval zindon (tana, nafs) bo‘ylab sudraydi, so‘ng talanishdan, talon-taroj bo‘lishdan zada bo‘lib ketgan qalbga gulmix qoqiladi (ilohiy bilimga birlashish uchun harakat cheklanadi), qalbning daryo bo‘lib oqayotgan iligi (qalb quvvati) qoqib olinadi. Nihoyatda xalqona, ammo mag‘zi to‘q ifoda usullari bilan chizilgan qalb tasvirlarini she’r ismi (“Aruz<sup>13</sup>”)dan kelib chiqib, ko‘ngilning o‘z holidan o‘ziga arz qilishi, o‘z bilimi holidan taajjubga tushishi, ilohiy bilim rukniga – ustuniga suyanishdan boshqa yo‘l qolmaganini anglashi, deb tushunishimiz o‘rinlidir.

Qurdosh Qahramonov ta’kidlaganidek, “Eshqobil Shukurning xalqimiz o‘zligini namoyon qiluvchi narsa-hodisalarini poetik obraz yoki timsol darajasiga ko‘tarib, lirik “men” ruhiyati dardlari bilan bog‘lab talqin etgan “Changovuz”, “Ko‘pkari”, “Sholi qo‘riqchisi”, “Chimildiq” she’rlarida milliy udumlar aks etgan bo‘lsa, “Ko‘nglimni

<sup>12</sup>Рахманов У. Хозяйственные помещения за пределами крепости Сапаллитепа, История материальной культуры Узбекистана. Вып. 13. –Т., 1977. стр. 24.

<sup>13</sup>Alisher Navoiy. MAT. O’n yettinchi tom. Mezon ul-avzon. – T.: Fan, 2000. – B. 40–41.

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

## **№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

toshga yordim”, “Sochlari sumbul-sumbul”, “Shikasta-shikasta” kabi xalq og‘zaki ijodi ohanglarida bitilgan she’rlari, “Mengim momoning yo‘qlovi” marsiyasida ham shu xususiyat bo‘rtib ko‘rinadi”<sup>14</sup>.

“Ko‘pkari” she’ri<sup>15</sup>dagi xalqona ohanglar (“Hayt” – dedi, uloq ketdi<sup>16</sup>//Qosh ila qaboq ketdi//Chavandozning ko‘nglidan//Shom ila Iroq ketdi”), “Chanqovuz” she’ri<sup>17</sup>dagi “po‘lat til”, “havo so‘z” kabi poetik topildiqlar (“Qorachaqmoq cho‘qilab bag‘rim o‘yildi mening<sup>18</sup>//Tilim tiyildi mening, so‘zim qiyildi mening//Po‘lat til topib oldim, havo so‘z topib oldim”) milliy folklor bilimi shoir ijodiy shaxsiyatining ajralmas bo‘lagi, aytish mumkinki, muhim asoslaridan biri ekanini dalillaydi.

Umuman, Eshqobil Shukur nafaqat folklor shaklini – zohirini, balki xalq ijodi mazmuni-yu qalbini – botinini ham puxta o‘zlashtirgani bu she’rlardagi sodda-tabiyy tasvirlar izchilligini va ko‘hna obrazlar yangilanishini ta’minlagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Alisher Navoiy. MAT. O’n yettinchi tom. Mezon ul-avzon. – T.: Fan, 2000.
2. Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002.
3. Eshqobil Shukur. Ko‘z yumib ko‘rganlarim. – T.: Akademnashr, 2013.
4. Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san’at, 1988.
5. Eshqobil Shukur. Yashil qushlar. – T.: Yozuvchi, 1995.
6. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – T.: Fan, 2011.

<sup>14</sup>Eshqobil Shukur. “Qushdan ildiz oldim, qanotni guldan...”. (Qurdosh Qahramonov bilan suhbat) //O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2014. 16сон.

<sup>15</sup>Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. – T.: Sharq, 2002. – B. 21–22.

<sup>16</sup>Bu satr “Sochlari sumbul-sumbul” to‘plamida “Voh”, dedi” shaklida kelgan (U.A).

<sup>17</sup>Eshqobil Shukur. Sochlari sumbul-sumbul. – T.: Adabiyot va san’at, 1988. – B. 53.

<sup>18</sup>Bu satr “Sochlari sumbul-sumbul” to‘plamida “Paranjining ichida bag‘rim o‘yildi mening” shaklida kelgan (U.A).

# **“IZLANISH SAMARALARI”**

**№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani**

1-SHO'BA. ADABIYOTSHUNOS NO'MONJON RAHIMJONOV ZAMONDOSHLARI XOTIRASIDA		
<b>№</b>	<b>Paper Title</b>	<b>Page №</b>
<b>Adabiyotshunoslik</b>		
1.	<b>AJINIYOZ SHE'RIYATI O'ZBEKCHA OHANGLARDA</b> Gulandom Kurambayeva	5-10
2.	<b>YANGI O'ZBEK SHE'RIYATIDA MEVALI DARAXT OBRAZLARI</b> <b>POETIKASI</b> Nafosat O'roqova	11-18
3.	<b>ALIYGERI DANTE IJODIDA “YANGI YOQIMLI USLUB”NING</b> <b>O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> Ulug'bek Qo'chqarovich Ko'chimov	19-22
4.	<b>ALISHER NAVOIY IJODIDA MA'RIFATNING YUKSAK</b> <b>AHAMİYATI</b> Makhliyo Mirzaakhmedova	23-29
5.	<b>HUVAYDO SHE'RIYATIDA BADIY SAN'ATLARNING</b> <b>POETIK JIHATLARI</b> Dilfuza Zaripova	30-37
6.	<b>ШУКРОНАЛИК УМУМИНСОНӢ ҶАДРИЯТ СИФАТИДА</b> Б.С.Шукрова	38-41
7.	<b>O'RTA ASR MANBALARIDA ALISHER NAVOIY ISHTIROK</b> <b>ETGAN ADABIY ANJUMANLARNING YORITILISHI</b> Sherxon Qorayev Po'latxonovich	42-48
8.	<b>ESHQOBIL SHUKUR SHE'RIYATIDA KO'HNA OBRAZLAR</b> <b>YANGILANISHI</b> Uldona Abdurahmonova Abdujapbarovna	49-53
9.	<b>PUBLICATIONS OF ALISHER NAVOI'S KHAMSA: THE TIMELESS</b> <b>LEGACY OF A LITERARY GIANT</b> Hilola Shokirova Shokir qizi	54-57
10.	<b>HAZRATI ALI HAQIDAGI O'ZBEK VA TURK XALQ</b> <b>QISSALARINING VARIANT VA VERSIYALARI</b> (“Muhammad Hanifa qissasi” misolida) Farruh Bafoyev	58-65
11.	<b>SHE'RIYATDA SODDA VA KENGAYGAN METAFORA</b> Dadaxon Muhammadiyev	66-70
12.	<b>МЕТОДИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ</b> <b>СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБРАЗЦОВ ИНОСТРАННОЙ</b> <b>ЛИТЕРАТУРЫ</b> Зарипова Мафтуна Бахромовна	71-78
13.	<b>ИЗУЧЕНИЕ И ОЦЕНКА ПРИМЕРОВ ЗАРУБЕЖНОЙ</b> <b>ЛИТЕРАТУРЫ И СПОСОБОВ ИХ ПРИМЕНЕНИЯ НА ПРАКТИКЕ</b> Зарипова Мафтуна Бахромовна	79-88
14.	<b>SHUKUR XOLMIRZAYEV NIKOYALARIDA IJODKOR</b> <b>OBRAZINING XARAKTERI VA PORTRETI TASVIRI</b> Shoxista Mahmudova Abdusalomovna	89-94

